

TIKUVCHILIK FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING SAMARADORLIGI

Boysun tuman 2-son politexnikumi

maxsus fan o'qituvchisi

Boltaeva Manzura Majidova

Email. manzuraboltayeva9@gmail.com

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada kasbiy ta'lim tizimida tikuvchilik fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Unda interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha asosida o'qitish, kompetensiyaviy yondashuv kabi zamonaviy yondashuvlarning dars jarayonlariga tatbiqu va ularning amaliy samaradorligi yoritilgan.

Maqolada tikuvchilik fanining o'ziga xos jihatlari, ya'ni nazariya va amaliyotning uyg'unligi, ijodiy yondashuv va texnik ko'nikmalarni talab qilishi asosida ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning o'quvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, darsga qiziqishni oshirish va ularni real mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi roli keng yoritilgan. Pedagogik tajriba va tahlillarga asoslangan holda maqolada o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar ilgari surilgan. Maqola, politexnikumlar va kollejlarning tikuvchilik fani o'qituvchilari hamda ta'lim metodistlari uchun foydali metodik manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar Milliy kiyimlar, naqshlar, bezaklar, dizayn, texnologiya, iqtisod;

ANNOTATION This article analyzes the role and importance of modern pedagogical technologies in teaching the subject of sewing within the vocational education system. It highlights the application and practical effectiveness of interactive methods, information and communication technologies (ICT), project-based learning, and competence-based approaches in the teaching process.

The article emphasizes the specific characteristics of the sewing subject — such as the integration of theory and practice, the need for creative approaches, and the development of technical skills — and provides practical recommendations for organizing lessons accordingly. Furthermore, it outlines how the implementation of modern technologies helps to develop students' professional competencies, increases their interest in the subject, and prepares them for real-world labor market demands. Based on pedagogical experience and analytical observations, the article offers actionable suggestions for sewing instructors.

This article serves as a useful methodological resource for teachers, methodologists, and educators working in vocational colleges and polytechnic institutions specializing in sewing and garment production.

Key words National clothes, patterns, decorations, design, technology, economy;

KIRISH Hozirgi globallashuv jarayonida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, kasbiy ta'lim sohasida o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirilgan bo'lishi jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan "Inson qadri uchun" tamoyiliga mos holda har bir soha mutaxassisini zamon talablari darajasida tayyorlash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.



Tikuvchilik sohasi — yengil sanoatning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, milliy iqtisodiyotda alohida o‘rin egallaydi. Ayni vaqtda ushbu soha bo‘yicha malakali mutaxassislarni yetishtirish uchun kasb-hunar maktablari, politexnikumlar va kollejlarda tizimi faoliyat yuritmoqda. Tikuvchilik — bu nafaqat kasb, balki san‘at va hunarmandchilikni o‘zida mujassam etgan murakkab faoliyatdir. U zamonaviy texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirishni, dizayn va modani his etishni, shuningdek, milliy an‘analarni saqlagan holda yangi mahsulot yaratishni talab qiladi. Shu boisdan, bu sohada ta‘lim berayotgan pedagoglarning roli beqiyosdir. O‘qituvchi zamon bilan hamnafas bo‘lib, dars jarayonlariga innovatsion yondashuvlarni, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etishi lozim. An‘anaviy usullar o‘z samarasini to‘liq bermayotgan bir sharoitda, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha asosida o‘qitish, kompetensiyaviy yondashuv kabi zamonaviy yondashuvlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.



Shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi nafaqat o'quvchilarning bilim darajasiga, balki ularning kasbiy kompetensiyalarining shakllanishiga, mustaqil fikrlash qobiliyati va ijodiy salohiyatining rivojlanishiga olib keladi. Ayniqsa, tikuvchilik fanini o'qitishda nazariya bilan amaliyotning uyg'unligini ta'minlashda bu usullar samarali hisoblanadi. Tikuvchilik sohasining o'ziga xosligi — bu kasbga oid bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lab o'qitishni talab qilishi bilan ajralib turadi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchidan doimiy izlanish, yangilikka ochiqlik, metodik kompetensiyani oshirishni talab etadi. Shuning uchun tikuvchilik fanida o'qitish samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

Mazkur maqolada tikuvchilik fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zaruriyati, ularning turlari, qo'llash mexanizmlari va natijadorligi tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi — pedagogik tajriba va nazariy yondashuvlar asosida tikuvchilik fani darslarining sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI Tikuvchilik fanining kasbiy ta'limdagi o'rni va o'ziga xosligi. Tikuvchilik fani kasbiy ta'lim tizimining amaliyotga

yo'naltirilgan, yuqori darajada kasbiy malakalarni shakllantiruvchi muhim komponentidir. Bu fan orqali o'quvchilar libos modellarini ishlab chiqish, konstruksiya va dizayn asoslari, tikuv mashinalari bilan ishlash, zamonaviy tekstil materiallari xususiyatlarini o'rganadilar. Tikuvchilik darslari odatda nazariy bilim va amaliy mashg'ulotlarni uyg'unlashtirgan holda o'tiladi.



So'nggi yillarda moda sanoatining jadal rivojlanishi, bozor talabining ortishi, milliy liboslarga bo'lgan qiziqishning ortib borayotgani — tikuvchilik sohasida yuqori malakali mutaxassislarni yetishtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Bu esa o'z navbatida fanni o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishni talab qiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar tushunchasi va ularning mohiyati.

Pedagogik texnologiyalar — bu ta'lim jarayonini loyihalash, tashkil etish va nazorat qilish usullarining tizimidir. Zamonaviy texnologiyalar orqali o'quvchilarni faollikka undash, amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash, mustaqil ishlashga o'rgatish va ijodiy

yondashuvni shakllantirish mumkin. Tikuvchilik fanida quyidagi pedagogik texnologiyalar samarali hisoblanadi:

a) Interfaol o‘qitish texnologiyalari. Interfaol metodlar o‘quvchilarni dars jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki faol sub’ektiga aylantiradi. Tikuvchilik fanida quyidagi interfaol metodlar keng qo‘llaniladi: “Aqliy hujum” (Brainstorming) – libos modeliga g‘oya ishlab chiqishda. “Insert” texnologiyasi – matnli ma’lumotni o‘qib tushunish, tahlil qilishda. “Guruhli loyiha” – biror libos turini loyihalash va tikish bo‘yicha amaliy topshiriqlarda, “Bahs-munozara” – milliy va zamonaviy liboslar orasidagi farq va ustuvorliklarni tahlil qilishda. Bu metodlar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, fikrini asoslab aytishga va jamoada ishlashga o‘rgatadi.

b) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT). Raqamli vositalarni darsga jalb qilish tikuvchilik fanini yanada qiziqarli, tushunarli va zamonaviy qiladi: Multimediali taqdimotlar yordamida kiyim tikish bosqichlari vizual ko‘rinishda tushuntiriladi. Virtual tikuvchilik dasturlari (masalan, CLO 3D, Optitex, Tukatech) orqali libos dizayni 3D formatda yaratiladi. YouTube yoki boshqa platformalardagi mashg‘ulot videolari orqali murakkab jarayonlar ko‘rgazmali o‘rganiladi. Google Classroom, Moodle kabi platformalar orqali masofaviy ta’limni yo‘lga qo‘yish imkoniyati yaratiladi.

c) Loyiha asosida o‘qitish . “Project-based learning” yondashuvi — bugungi kunda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Bu usulda o‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linib, aniq bir libosni ishlab chiqish va tikish bo‘yicha to‘liq loyihani amalga oshiradilar. Jarayonda ular quyidagi bosqichlarni bajaradilar:

G‘oya yaratish

Dizayn chizmasi tayyorlash

Matolarni tanlash

Konstruksiya chizmasini tuzish

Tikuv jarayoni

Tayyor mahsulotni taqdim qilish

Bu texnologiya orqali nafaqat tikuvchilik ko'nikmalari, balki mas'uliyat, ijodiylik, jamoaviylik va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish kabi hayotiy ko'nikmalar ham shakllanadi.

Bugungi ta'lim konsepsiyasida bilim emas, balki kompetensiyaga (ya'ni bilim + ko'nikma + munosabat) e'tibor qaratilmoqda. Tikuvchilik fanida quyidagi kompetensiyalarni shakllantirish muhim: Kasbiy kompetensiya – tikuv mashinalarini ishlata olish, konstruktorlik bilimlari, modellashtirish. Ijtimoiy kompetensiya – jamoada ishlash, mijozlar bilan muloqot qilish. Shaxsiy kompetensiya – tashabbuskorlik, mas'uliyat, kasbga sadoqat. Pedagogik texnologiyalar aynan shu kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tikuvchilik fanida dars samaradorligini baholash mezonlari. Pedagogik texnologiyalar samaradorligini baholashda quyidagi mezonlar asos bo'lishi mumkin:

O'quvchilarning darsga faollik darajasi (savol-javoblarda ishtiroki, loyiha ishlaridagi qatnashuvi). Amaliy ko'nikmalar shakllanishi (tikilgan mahsulot sifati, texnik talabga muvofiqligi). Mustaqil ishlash qobiliyati (uy vazifalarini bajarish sifati, o'z loyihasini taqdim eta olishi). Ijodiylik (original model yaratishi, milliy unsurlarni tatbiq eta olishi)

Qiziqish va motivatsiya (darsga kechikmasdan qatnashish, mustaqil izlanish). Shuningdek, o'qituvchi o'z ishini tahlil qilish uchun kuzatuv varaqalari, so'rovnomalar, portfoliolar, amaliy topshiriqlarni baholash rubrikalaridan foydalanishi maqsadga muvofiq.

Amaliy tajribadan namunalar. Ko'plab kasb-hunar maktablari va politexnikumlarda tikuvchilik fanidan loyiha asosida o'qitish samarali natijalar bermoqda. Masalan, "Zamonaviy milliy libos" mavzusidagi loyiha davomida o'quvchilar o'z hududiga xos bezak va uslublarni tadqiq qildilar, loyihalashdi, tikishdi va mahsulotni taqdim etdilar. Natijada ularning amaliy ko'nikmalari, ifoda qilish madaniyati va ijodiy salohiyati ancha oshdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR Tikuvchilik fani — kasbiy ta'lim tizimida nazariya va amaliyot uyg'unligini taqozo etuvchi, o'quvchilarda texnik bilim bilan birga badiiy

did, estetik qarash, aniqlik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantiradigan kompleks yoʻnalish hisoblanadi. Bugungi globallashuv, texnologik taraqqiyot va bozor iqtisodiyoti sharoitida ushbu fan boʻyicha taʼlim sifatini oshirish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash eng dolzarb vazifalardan biri boʻlib qolmoqda.

Oʻrganishlar shuni koʻrsatadiki, tikuvchilik fanini anʼanaviy usullar asosida oʻqitish bilan cheklanib qolish taʼlim samaradorligini pasaytiradi, oʻquvchilarni mustaqil fikrlash, amaliy muammolarni hal qilish, yangi modellarni yaratish kabi muhim kasbiy kompetensiyalarga ega boʻlishiga toʻliq imkon bermaydi. Shu bois, pedagogik faoliyatda zamonaviy, innovatsion va interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha asosida oʻqitish texnologiyalari keng qoʻllanilishi lozim. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish orqali:

Oʻquvchilar darsda faol ishtirok etadilar, bilimlarni passiv qabul qilmay, oʻzlashtirishda ishtirokchi boʻladilar; Mustaqil ishlash, fikrlash, muammo yechishga yondashish, loyihani boshidan oxirigacha rejalash kabi koʻnikmalar shakllanadi;

Oʻqituvchining roli oʻzgaradi — u bilim beruvchi emas, balki yoʻnaltiruvchi, maslahat beruvchi, tashkilotchi rolini bajaradi; Darslar qiziqarli, samarali va raqobatbardosh kasbiy malakalarni shakllantiruvchi muhim vositaga aylanadi;

Bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan, ijodiy yondasha oladigan va mustaqil ishlay oladigan mutaxassislar tayyorlanadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan tikuvchilik darslari nafaqat oʻquvchilarning kasbga boʻlgan qiziqishini oshiradi, balki ularni hayotiy faoliyatga tayyorlaydi. Interaktiv darslar, multimedia vositalari, virtual simulyatorlar, loyiha metodikasi orqali oʻquvchilarda kasbiy tayyorgarlik yuqori darajaga koʻtariladi.

Taklif va tavsiyalar. Oʻqituvchilarning malakasini oshirish Tikuvchilik fani oʻqituvchilari uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar boʻyicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish lozim. Bu kurslarda interfaol metodlar, AKT vositalaridan foydalanish, loyiha asosida dars tashkil etish, kompetensiyaviy yondashuv boʻyicha amaliy mashgʻulotlar boʻlishi kerak. Raqamli resurslar yaratish Tikuvchilikka oid interaktiv videodarslar, elektron darsliklar, mobil ilovalar va 3D

simulyatsiyalar yaratilib, dars jarayoniga integratsiya qilinishi kerak. Bunda o'quvchilar o'zlashtirish darajasiga mos holda mustaqil shug'ullanish imkoniga ega bo'ladilar. Innovatsion jihozlar bilan ta'minlash. Tikuvchilik xonalarini zamonaviy tikuv mashinalari, lazerli kesish qurilmalari, mato simulyatsiya dasturlari bilan jihozlash orqali o'quvchilarning real ishlab chiqarish sharoitiga yaqinlashgan muhitda bilim olishiga erishiladi. Korxona va tashkilotlar bilan hamkorlik Mahalliy tikuv korxonalari, dizayn studiyalari bilan hamkorlikda o'quvchilarga amaliyot tashkil etish, real buyurtmalar ustida ishlash tajribasini yo'lga qo'yish lozim. Bu nafaqat ularning amaliy ko'nikmasini oshiradi, balki kasbga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Talab va taklifni o'rganishga asoslangan ta'lim Tikuvchilik yo'nalishida ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda mehnat bozori talabi, zamonaviy moda tendensiyalari, iste'molchi ehtiyojlari inobatga olinishi lozim. Bunda o'quv dasturlarining mazmuni doimiy ravishda yangilanib boradi.

Xulosa qilib aytganda, tikuvchilik fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish — o'quvchilarning kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga, ularni raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. O'qituvchilar ushbu yo'nalishda ijodkorlik, yangilikka intilish va metodik jihatdan izlanishda bo'lsalar, albatta, ta'lim sifati sezilarli darajada oshadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxmudova Dva boshqalar "Muxandislikva kompyuter grafikasi".-T.: "History and Page",2022y.
2. Komilova X.H., Hamrayeva H.Q. "Kiyimloyihalash asoslari".-T.: "Ilmziyo", 2014y.
3. Toshpo'latov S.Sh. va boshqalar. "Keng assortimentdagi kiyimlarni loyihalash, modellashtirish va badiiy bezash".-T.: "Faylasuf", 2014y.
4. Abdullayeva Q.M. va boshqalar. "Tikuv buyumlarni loyihalash, modellashtirish va badiiy bezash".-T.: "Noshir", 2016y.
5. Q.M. Abdullayeva. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish asoslari. Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasi, 2003.

6. Faxriddin B., No‘monbek A. ABS SISTEMASI BILAN JIHOZLANGAN M1 TOIFALI AVTOMOBILLARNING TORMOZ SAMARADORLIGINI MATEMATIK NAZARIY TAHLILI //International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. – 2024. – Т. 4. – №. 1. – С. 333-337.
- 7.Qurbonazarov S. et al. ANALYSIS OF THE FUNDAMENTALS OF MATHEMATICAL MODELING OF WHEEL MOVEMENT ON THE ROAD SURFACE OF CARS EQUIPPED WITH ABS //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – Т. 4. – №. 8. – С. 45-50.
- 8.Xuzriddinovich B. F. et al. ABS BILAN JIHOZLANGAN AVTOMOBILNI TORMOZ PAYTIDA O ‘ZO ‘ZIDAN VA MAJBURIY TEBRANISHLARINI TORMOZ SAMARADORLIGIGA TA’SIRINI TAHLIL QILISH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 47. – №. 4. – С. 81-87.
9. Xusinovich T. J., Ro‘zibayevich M. N. M1 TOIFALI AVTOMOBILLARNI TURLI MUHITLARDA TORMOZLANISHINI TAHLIL QILISH VA PARAMETRLARINI O ‘RGANISH.
10. Karshiev F. U., Abduqahorov N. ABS BILAN JIHOZLANGAN M1 TOIFALI AVTOMOBILLAR TORMOZ TIZIMLARINING USTIVORLIGI //Academic research in educational sciences. – 2024. – Т. 5. – №. 5. – С. 787-791.
- 11.Каршиев Фахридин Умарович, Н.Абдуқаҳоров ИЗУЧЕНИЕ МИКРОСТРУКТУРЫ СТАЛИ В МАТЕРИАЛОВЕДЕНИИ//<https://www.iupr.ru/6-121-2024>
https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_15c4798c874a4ddab326a52bd3af34ea.pdf?index=true
12. Абдуқаҳоров Н., Турдиалиев Ж., Мўминов Н. АВТОМОБИЛИ М1 В РАЗНЫХ УСЛОВИЯХ АНАЛИЗ И ПАРАМЕТРЫ ТОРМОЖЕНИЯ УЧИТЬСЯ //Журнал научно-инновационных исследований в Узбекистане. – 2024. – Т. 2. – №. 4. – С. 377-386.

13. Каршиев Ф. У., Абдукахоров Н. ИЗУЧЕНИЕ МИКРОСТРУКТУРЫ СТАЛИ В МАТЕРИАЛОВЕДЕНИИ //Экономика и социум. – 2024. – №. 6-2 (121). – С. 1142-1145.
14. Xusinovich T. J., Ro‘zibayevich M. N. M1 TOIFALI AVTOMOBILLARNI TURLI MUHITLARDA TORMOZLANISHINI TAHLIL QILISH VA PARAMETRLARINI O‘RGANISH.
15. M. Jabborova. Tikuvchilik texnologiyasi.—T., «O‘qituvchi», 1989.
16. T. M. Poshshaxo‘jayeva. Xizmat ko‘rsatish mehnati. 5-7-sinflar uchun o‘quv qo‘llanma.— T., «O‘qituvchi», 199